

**ALOQA OBYEKTLARIGA KADASTR RAQAM BERISHNI
SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH
(SAMARQAND SHAXRI MISOLIDA)**

*Mirzo ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti
magistranti **Ravshanov Rizamat Rustam o'g'li***

Annotatsiya: Aloqa obyektlari davlat kadsatri bu obyektlarni , geografik holati huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to'g'risidagi yangilab boriladigan ishonchli ma'lumotlar tizimidir.U davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qism\i hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha hududidagi aloqa obyektlarini hisobga olish va baholash maqsadida yuritiladi.

Kalit so'zlar: Aloqa obyektlari, kadastr, geodeziya, kartografiya, Davlar Geodeziya Tarmoqlari, ko'chmas mulk chegarasi, Ma'lumotlar Banki, ommaviy axborot vositalari, Davlat statistika qo'mitasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, optik tolali aloqa liniyalari, raqamli texnologiyalar, Yagona darcha, O'zbekiston Respublikasi hukumat portal,mobil aloqa tarmog'i, "UNIKION.UZ" davlat unitar korxonasi, DKYAT ma'lumotlar bazasi, Davyergeodezkadastr qo'mitasi, telekommunikatsiya tarmoqlari, metrologiya, "UNICION.UZ "fan-tadqiqot markazi , telefon-telegraf stansiyalari, turg'un aloqa asbob-uskunalari , magistral liniyalar, tuman telekommunikatsiya , aloqa radiorele chiziqlari stansiya va inshootlari, yo'ldoshli aloqa stansiyalari , qabul qilish-uzatish radiotansiyalari, ko'chma obyektlarga ega bo'lgan quruqlikdagi radioaloqa stansiyalari , raditelevizion stansiyalar va retranslyatorlar , pochta va maxsus aloqa obyektlari , simli eshitirish stansiyalari va tarmoqlari

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan kundan boshlab barcha sohalar kabi geodeziya, kartografiya va kadastr sohaları ham rivojlana boshladi . Hozirda olib borilayotgan ilmiy va amali ishlarni yanada mukamallashtirish maqsadida sohaga doir texnika va texnologiyalarni hayotga tatbiq qilishga alohida e'tibor berilmoqda .

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari davlat qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonning umumiy yer maydoni 44410,3 ming ga ni tashkil etgani holda, uning 90 foizga yaqini davlat tomonida turli huquqlar asosida korxonalar, muassasa, tashkilotlarga, shu jumladan fuqarolarga birlashtirilgan. Avvalambor, shuni ta'kidlash joizki, kadastrning barcha turlarini bajarish uchun Davlat Geodeziya tarmoqlari (DGT)barcha talablarga javob beradigan darajada barpo etilgan bo'lishi kerak. Bu borada Respublikamizda ilmiy amaliy ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidan tashqarida faoliyat ko'rsatuvchi aloqa obyektlari mulkdorlari foydalanuvchilari vazirlik Aloqa obyektlari davlat kadastr xizmatiga kadastr obyektlarining geografik holati, huquqiy maqomi, miqdoriy tavsiflari va bahosi, shuningdek, ularning holatidagi joriy o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishlari shart.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududida Davlat geodezik tarmog'ini, Yer yo'ldoshi tizimi texnologiyasi bo'yicha takomillashtirish masalalariga ko'p miqdorda mablag' ajratilib, bu ishning rivojiga kata ahamiyat berilmoqda.

Shuningdek, barcha yerlar, ko'chmas mulk chegaralari, burchaklari DGT asosida joyida topiladi va belgilanadi. Yer va boshqa turdagi ko'chmas mulklarni ro'yxatga olish, ular haqida aniq ma'lumotlarni to'plash, ularni bir joy - ma'lumotlar banki (MB)ga yig'ib, kerak bo'lganda ulardan samarali foydalanish, yer ko'chmas mulk egasi bo'lishi davlat va jismoniy shaxsning yerga, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqini himoya soliq tizimini mukamallashtirish, ko'chmas mulk haqidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, ularni kimoshdi bozorida sotish va sotib olish kabi juda ko'p masalalarni yechish maqsadida yer kadastr tuzildi.

Metodologiya

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, jami axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 11413 tani tashkil etgan. Bu holat o'tgan yilning mos favri bilan solishtirganda 7,5%ga oshgan. Yilda axborot va aloqa sohasida 2 544ta korxonalar tashkil etilib, ularning 2 521 ta\i kichik tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga tog'ri kelgan. Shu jumladan, aholi yashaydigan hududlarning 98foizi mobil aloqa bilan qamrab olinadi.

”2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosq..ichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Prezident qarori (PQ-357-son, 22.08.2022-yil)qabul qilindi. Qarorga muvofiq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini 2022-2023-yillarda yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilandi. Jumladan: 2022-yil yakunigacha:

Aholi yashash maskanlarini mobil aloqa tarmog'i bilan qamrab olish darajasi 98 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llarida mobil internet qamrovi 60 foizga yetkaziladi. Shuningdek,

▪40 ming km optic tolali aloqa liniyalari qurish orqali qamrov 80 foizga yetkaziladi;

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanu\chilar soni 2 barobarga yetkaziladi; 2023-yil yakunigacha:

▪Raqamli texnologiyalar sohasida yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo'nalishida ta'lim olishi yo'lga qo'yiladi;

Davlat organlari, shu jumladan mahalliy hokimlik organlarida hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarida 214 ta axborot tizimi va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi.

2022-yil 1-sentyabrdan respublikaning barcha hududlarida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali masofaviy xizmatlarni eksport qilish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etiladi.2023-yil 1-yanvardan tegishli davlat organlari (24 ta) rasmiy veb-sayti portallarini "Yagona darcha" tamoyili asosida o'z ichiga oluvchi O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal yagona platformasi ishga tushiriladi.

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish zimmasiga yuklangan vakolatli mansabdor shaxslar kadastr axborotlarning ishonchligi va ularning Davlat kadastrlari yagona tizimiga o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

1.O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimida hamda uning tizimidan tashqarida faoliyat ko'rsatadigan aloqa korxonalari obyektlari mulkdorlari foydalanuvchilari aloqa korxonalari obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini kadastr xizmatlariga taqdim etadilar.

2.Kadastr xizmatlari ushbu obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini to'playdi, o'z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, aloqa korxonalari obyektlari bo'yicha axborotlarni "UNIKION.UZ" davlat unitary korxonasi AODK xizmatiga beradi.

3."UNIKION.UZ" davlat unitary korxonasi AODK xizmati davlat yer kadastridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, bino va inshootlar to'g'risidagi axborotlarni oladi.

4."UNIKION.UZ" davlat unitary korxonasi AODKxizmati aloqa korxonalari obyekti AODKga kiritigandan keyin kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.

5."UNIKION.UZ" davlat unitary korxonasi AODK xizmati so'rovi bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan aloqa korxonalari obyektlari bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

UNIKION.UZ davlat unitary korxonasi tushunchasi haqida gapiradigan bo'lsak, bunda, sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan siyosatni amalga oshirish, aloqa, standartlashtirish, metrologiya, telekommunikatsiya tarmoqlarida foydalanilgan asbob-uskunalarini sertifikatlashtirish sohasida me'yoriy-huquqiy bazani yaratish hamda joriy etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1992-yil oktabrda yangi texnika va texnologiyalar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Aloqa

vazirligi buyrug'I bilan aloqa sohasida "UNICION.UZ" fan-tadqiqot markazi tashkil etilgan. 2009-yilda yangi "UNICION.UZ" brendi tashkil etildi.

Tahlil va natijalar. Quyidagilar Aloqa obyektlari davlat kadastr obyektlari hisoblanadi:

-xalqaro, shaharlararo, viloyat va tuman ahamiyatiga ega bo'lgan telefon-telegraf stansiyalari, shu jumladan, turg'un aloqa asbob-uskunolari va magistral liniyalari;

-aloqaning tarmoq uzellari;

-shahar aloqa telefon uzellari, shu jumladan stansiyalari va chiziqli inshootlari;

-tuman telekommunikatsiya uzellari, shu jumlada, stansiya asbob-uskunolari, hududit va qishloq chiziqli inshootlari;

-aloqa radiorele chiziqdari stansiya va inshootlari;

-yo'ldoshli aloqa stansiylari;

-qabul qilish-uzatish radiotansiyalari;

-ko'chma obyektlarga ega bo'lgan quruqlikdagi radioaloqa stansiyalari (shaxsan radichaqiruv, radial tizimlar, uyali telefonlar);

-raditelevizion stansiyalar va retranslyatorlar;

-simli eshitirish stansiyalari va tarmoqlari;

-pochta va maxsus aloqa obyektlari.\

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vkolatli organ hisobladi. Kadastr davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, O'zbekiston Respublikasi Axborotlar texnologiyari va kommunikatsiyarini rivojlantirish vazirligi, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni aloqa obyektlari to'g'risidagi ishonchli kadastr ma'lumotlari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Quyidagilar Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

-O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha aloqa obyektlarini qamrab olish;

-makon koordinatlari yagona tizimini va yagona topografik asosni qo'llanish;

-barcha obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;

-kadastr axborotlarining ishonchliliigi, ko'rgazmaliligi va hujjatliliigi;

-kadastr axborotlarining ochiqligi.\ \ \ \ \ \

Xulosa

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bu obyektlarni ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydi, yer kadastrini hamda bino va inshootlar davlat kadastrlari ma'lumotlaridan majburiy foydalanishni nazarda tutadi. Aloqa obyektlariga tegishli yer uchastkalari, bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davit ro'yxatidan o'tkazish vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Aloqa obyektlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan kadastr axborotlari Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda, geoaxborot tizimining tugallangan loyihasi tarzida beriladi. Ma'lumotlar elektron-raqamli bazalarning texnik parametrlari (klassifikatorlar, shartli belgilar va boshqalar) Davyergeodez kadastr qo'mitasi bilan kelishishi kerak.

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi apparati ta'mini uchun smetada nazarda tutilgan mablag'lar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastr xizmati tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastr xizmati:

- kadastr xizmati (vakolatli shaxslar) ishlarini muvofiqlashtiradi;
- tushayotgan axborotlar sifatini nazorat qiladi, ularning ishonchligi va Aloqa obyektlarining geoaxborot tizimiga kiritilishi uchun javob beradi;
- kadastr axborotlarining turi va sifatiga talabni muntazam ravishda o'rganadi, kadastr yuritish texnologiyasining takomillashtirishini ta'minlaydi;
- aloqa obyektlarining geoaxborot tizimini joriy etadi va uning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;
- kadastr xizmatlari aloqa obyektlarini mavjudligi, miqdori va sifati, bahosi va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini o'rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;
- O'zbekiston Respublikasi hududida aloqa obyektlarining joylashish xaritasini tuzishni ta'minlaydi;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kadastr axborotlaridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi;

-Davlat kadstrlari yagona tizimiga zarur kadstr avborotlarining tezkorlik bilan taqdim etishini amalga oshiradi;

-har yili, belgilangan tartibda Davyergeodezkadastr qo'mitasiga Davlat kadastrlari yagona tizimi ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun aloqa obyektlarining holati va ulardan foydalanishi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

Aloqa obyektlari bo'lmish shaharlararo aloqaning chiziqli inshootlari uchun yerlar va qurilish davrida ajratiladi. Aloqaning chiziqli inshootlaridan foydalanish jarayonida yerlardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1998-yil 15-maydagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiyalar liniyalari va inshootlarini muhofaza qilish qoidalari, boshqa normative-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Aloqa obyektlari ro'yxati ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish hamda ekologik-iqtisodiy baholash uchun asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlat kadastrlari asoslari . Ixlosov.I.I va Rizayeva.D.M Toshkent "NOSHIR"2019
2. Davlat kadastrlari asoslari. D.S.Yarmatova, A.R.Bobojonov, A.R.Raximov Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi , Toshkent-2014
3. my.gov.uz va lex.uz
4. Yer huquqi-darslik. Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexaniztsiyalash muhandislari instituti, Toshkent-2020
5. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov, P.Xoshimov, F.Egamberdiyev, Toshkent-2005
6. n.ziyouz.com
7. davreestr.uz
8. kadastr.uz